

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 9

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

BO'LAJAK SURDOPEDAGOGLARNI TAYYORLASHDA METODIK VA AMALIY KOMPETENSIYALAR INTEGRATSIYASINING PRAKSIOLOGIK KONSEPSIYASI: MAQSAD VA VAZIFALAR

Malikova Xurshida Ikramovna

A. Avloniy nomidagi Pedagogik mahorat milliy instituti, dotsent (PhD).

e-mail: kh.malikova2025@gmail.com ORCID: <https://orcid.org/0009-0007-5124-2893>

Annotatsiya.

Maqolada globallashuv va inklyuziv ta'lim paradigmasining transformatsiyalashuvi sharoitida bo'lajak surdopedagoglarning metodik va amaliy kompetensiyalari integratsiyasini ta'minlashning praktsiologik konsepsiyasi yoritilgan. Tadqiqotda oliy surdopedagogik ta'lim tizimidagi gnoseologik va praktsiologik komponentlar dezintegratsiyasini bartaraf etishning strategik maqsad va vazifalari ilmiy-metodologik jihatdan asoslab berilgan. Maxsus ta'lim kontentini didaktik loyihalash asosida bo'lajak mutaxassislarning integratsiyalashgan kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish tizimi ochib berilgan.

Kalit so'zlar: surdopedagog, metodik kompetensiya, amaliy kompetensiya, praktsiologik konsepsiya, integratsiya, didaktik loyihalash, kompetensiyalar dezintegratsiyasi.

ПРАКСИОЛОГИЧЕСКАЯ КОНЦЕПЦИЯ ИНТЕГРАЦИИ МЕТОДИЧЕСКИХ И ПРАКТИЧЕСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ В ПОДГОТОВКЕ БУДУЩИХ СУРДОПЕДАГОГОВ: ЦЕЛЬ И ЗАДАЧИ

Маликова Хуршида Икромовна

Национальный институт педагогического мастерства имени А. Авлони, доцент (PhD).

Аннотация.

В статье раскрывается праксиологическая концепция обеспечения интеграции методических и практических компетенций будущих сурдопедагогов в условиях глобализации и трансформации парадигмы инклюзивного образования. В исследовании с научно-методологических позиций обоснованы стратегические цели и задачи преодоления дезинтеграции гносеологического и праксиологического компонентов в системе высшего сурдопедагогического образования. На основе дидактического проектирования содержания специального образования раскрыта система развития интегрированных профессиональных компетенций будущих специалистов.

Ключевые слова: сурдопедагог, методическая компетенция, практическая компетенция, праксиологическая концепция, интеграция, дидактическое проектирование, дезинтеграция компетенций.

PRAXIOLOGICAL CONCEPT OF INTEGRATING METHODOLOGICAL AND PRACTICAL COMPETENCIES IN THE TRAINING OF FUTURE TEACHERS OF THE DEAF: AIMS AND OBJECTIVES

Malikova Xurshida Ikramovna

A. Avloni National Institute of Pedagogical Excellence, Associate Professor (PhD).

Abstract.

This article presents a praxiological concept for integrating methodological and practical competencies of future teachers of the deaf in the context of globalization and the transformation of the inclusive education paradigm. The study provides a scientific and methodological rationale for the strategic aims and objectives of overcoming the disintegration of epistemological and praxiological components within the higher education system for training teachers of the deaf. Based on the didactic design of special education content, the article outlines a system for developing the integrated professional competencies of future specialists.

Keywords: teacher of the deaf, methodological competence, practical competence, praxiological concept, integration, didactic design, competence disintegration.

Kirish. XXI asrning ikkinchi o'n yilligida global ta'lim makonida yuz berayotgan paradigmal o'zgarishlar, raqamli texnologiyalarning jadal ekspansiyasi hamda inklyuziv ta'lim tamoyillarining ustuvorlik kasb etishi maxsus pedagogika oldiga yangi, sifat jihatidan mutlaqo boshqacha talablarni qo'ymoqda. Xususan, eshitishida organik hamda funksional nuqsonlari bo'lgan bolalarni erta ijtimoiy reabilitatsiya qilish, ularning kompensator imkoniyatlarini maksimal darajada faollashtirish jarayoni endilikda an'anaviy didaktik qoliplar doirasida hal etilmaydi. Bugungi kunda surdopedagog

faoliyati sof pedagogik chegaralardan chiqib ketib, klinik tibbiyot (audiologiya, otolaringologiya, neyrofiziologiya), psixolingvistika, kognitiv psixologiya va raqamli audioakustika fanlarining kesishuvida yuzaga keladigan transdissiplinar maydonga aylanmoqda. Biroq oliy pedagogik ta'lim tizimida kadrlar tayyorlash amaliyotining bugungi real holati ilmiy tahlil qilinganda, jiddiy tizimli ziddiyat — ta'lim kontentidagi gnoseologik ustuvorlik va fanlararo tarqoqlik yaqqol ko'zga tashlanadi.

Mazkur sohadagi asosiy ilmiy-metodologik muammo shundaki, bo'lajak surdopedagoglar tomonidan oliy ta'lim auditoriyalarida o'zlashtirilayotgan tibbiy, psixologik va xususiy metodik bilimlar real kasbiy algoritmgacha yaxlit birlashmayapti [1]. Nazariya va amaliyot o'rtasidagi bunday uzilish oqibatida bitiruvchilar ixtisoslashtirilgan muassasalarga ishga kirgach yoki og'ir somatik-eshtitish nuqsoni bo'lgan bolalar, ularning ota-onalari hamda murakkab raqamli surdotexnika vositalari (koxlear implantlar, FM-tizimlar) bilan to'g'ridan-to'g'ri to'qnash kelganda chuqur kasbiy dezadaptatsiya va frustratsiyaga uchramoqdalar. Mavjud akademik modelning amaliy natijadorlikka erishishdagi ojizligi oliy ta'lim tizimida bo'lajak surdopedagoglarning metodik va amaliy kompetensiyalari integratsiyasini ta'minlovchi praksiologik konsepsiyani ishlab chiqishni kechiktirib bo'lmas dolzarb ilmiy-pedagogik vazifa sifatida kun tartibiga q

Adabiyotlar tahlili

Bo'lajak surdopedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlash, ularning metodik va amaliy kompetensiyalarini rivojlantirish hamda mazkur kompetensiyalar o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ta'minlash masalasi zamonaviy maxsus pedagogika va oliy ta'lim metodikasining muhim ilmiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu muammo yuzasidan olib borilgan tadqiqotlarda kompetensiyaviy yondashuv, kasbiy tayyorgarlikning nazariy va amaliy komponentlari, praksiologik faoliyat, didaktik loyihalash hamda maxsus pedagog mutaxassisining kasbiy kompetentligini shakllantirish masalalari turli jihatlaridan yoritilgan.

N. Z. Abidovanning bo'lajak maxsus pedagoglarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishga bag'ishlangan tadqiqotida mutaxassis tayyorlash jarayonida kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarning yaxlit tizimini shakllantirish zarurligi ta'kidlanadi. Muallif bo'lajak maxsus pedagogning kasbiy kompetentligini faqat nazariy bilimlar yig'indisi sifatida emas, balki pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish, mustaqil qaror qabul qilish va o'z kasbiy faoliyatini samarali tashkil eta olish qobiliyati bilan bog'liq murakkab integrativ sifat sifatida talqin qiladi [1]. Ushbu qarash metodik bilimlarning real amaliy faoliyatga ko'chirilishi muammosini o'rganishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Surdopedagogika nazariyasining shakllanishi va rivojlanishida S. A. Zikovning ilmiy qarashlari alohida ahamiyatga ega. Olim surdopedagogik faoliyatning mazmunini eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning rivojlanish xususiyatlarini chuqur bilish, ularning ta'lim-tarbiyasini maxsus metodik asosda tashkil etish hamda korreksion ishlarni pedagogik jarayon bilan uzviy bog'lash zarurati bilan izohlaydi [2, b. 45–48]. S. A. Zikovning yondashuvida surdopedagogning kasbiy tayyorgarligi nazariy bilimlarni egallash bilangina cheklanmay, mazkur bilimlarni bolaning individual imkoniyatlari va ehtiyojlaridan kelib chiqib amaliyotda qo'llay olish qobiliyatini ham talab qiladi. Shu jihatdan olimning qarashlari metodik va amaliy kompetensiyalar integratsiyasining nazariy asoslarini belgilashda muhim manba hisoblanadi.

O. A. Krasilnikovanning eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarga o'qishni o'rgatish metodikasiga bag'ishlangan tadqiqotlarida xususiy metodik bilimlarning amaliy pedagogik faoliyat bilan bog'liqligi batafsil yoritilgan. Muallif ta'lim jarayonini tashkil etishda o'quvchilarning nutqiy va psixologik xususiyatlarini hisobga olish, o'qitish metodlarini individual imkoniyatlarga moslashtirish hamda pedagogik vaziyatga muvofiq metodik qarorlar qabul qilish zarurligini asoslaydi [3, b. 76–81]. Bu qarashlar bo'lajak surdopedagoglarda metodik kompetensiyaning mazmunini faqat tayyor usullarni o'zlashtirish bilan emas, balki kasbiy vaziyatni tahlil qilish va unga mos amaliy faoliyat modelini ishlab chiqish bilan bog'lash lozimligini ko'rsatadi.

Kompetensiyaviy yondashuvning nazariy-metodologik asoslari xalqaro ta'lim tizimida, xususan, Tuning loyihasi doirasida keng tadqiq etilgan. Mazkur yondashuvda oliy ta'limning asosiy natijasi sifatida bilimlarning o'zi emas, balki ularni muayyan kasbiy va ijtimoiy vaziyatlarda qo'llashga imkon beradigan kompetensiyalar majmui e'tirof etiladi [4]. Tuning konsepsiyasida umumiy va maxsus kompetensiyalarni o'zaro bog'liq holda shakllantirish, ta'lim natijalarini kasbiy faoliyat talablari bilan uyg'unlashtirish masalasiga alohida e'tibor qaratiladi. Ushbu nazariy yondashuv bo'lajak surdopedagoglarni tayyorlashda metodik bilim, amaliy harakat va kasbiy natijadorlik o'rtasidagi uzviy aloqani ta'minlash zarurligini asoslashga xizmat qiladi.

A. V. Sanchez va M. P. Ruiz tahriri ostida nashr etilgan kompetensiyaviy ta'limga oid tadqiqotda kompetensiyalarni baholash masalasi alohida ilmiy muammo sifatida qo'yilgan. Unda kompetensiyaning shakllanganligini aniqlashda faqat nazariy bilimlarni tekshirish yetarli emasligi, balki ta'lim oluvchining murakkab vaziyatlarda bilim va ko'nikmalarni amalda qo'llay olish darajasini baholash zarurligi ko'rsatiladi [7, b. 18–24]. Mazkur yondashuv bo'lajak surdopedagoglarda metodik va amaliy kompetensiyalarning integratsiyalashuv darajasini aniqlash uchun kvalimetrik mezonlar ishlab chiqishda nazariy asos bo'la oladi.

Praksiologik yondashuvning nazariy asoslarini ochib berishda A. A. Pavlovichning ilmiy ishlari muhim o'rin tutadi. Muallif praksiologiyani inson faoliyatining samaradorligi, maqsadga muvofiqligi va optimal tashkil etilishi haqidagi ilmiy yo'nalish sifatida tavsiflaydi. Uning fikricha, praksiologik tahlil faoliyatning maqsadi, vositalari, bajarilish usullari va natijalari o'rtasidagi munosabatni baholash imkonini beradi [5, b. 71–75]. Ushbu qarash pedagogik faoliyatni faqat bajarilgan harakatlar yig'indisi sifatida emas, balki oldindan loyihalashtirilgan va aniq natijaga yo'naltirilgan tizim sifatida tushunishga imkon yaratadi. Shu sababli praksiologik yondashuv metodik bilimlarni amaliy-ijrochilik faoliyatiga transformatsiya qilish mexanizmlarini ishlab chiqishda metodologik ahamiyat kasb etadi.

Ye. Ye. Semchenkoning praksiologik ta'limga bag'ishlangan monografiyasida ta'lim jarayonini faoliyatga yo'naltirilgan tizim sifatida tashkil etish masalalari yoritilgan. Muallif ta'lim oluvchining nazariy bilimlarni egallashi bilan bir qatorda, mazkur bilimlar asosida maqsadni belgilash, faoliyatni loyihalash, optimal usullarni tanlash va natijalarni

baholash qobiliyatini rivojlantirish zarurligini ta'kidlaydi [6, b. 32–37]. Bu yondashuv bo'lajak surdopedagoglarning kasbiy tayyorgarligida gnoseologik va praktsiologik komponentlarni bir-biridan ajratmasdan, yagona didaktik tizim doirasida shakllantirish g'oyasini ilgari suradi.

Mavjud tadqiqotlarda bo'lajak maxsus pedagog va surdopedagoglarning kasbiy kompetentligini shakllantirish, xususi metodik tayyorgarlikni takomillashtirish, kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish hamda praktsiologik ta'lim masalalari yetarlicha yoritilgan. Biroq metodik kompetensiyalar va amaliy-ijrochilik kompetensiyalarining aynan yaxlit praktsiologik konsepsiya asosida integratsiyasini ta'minlash, ularning o'zaro dezintegratsiyasini bartaraf etish, maxsus ta'lim kontentini didaktik loyihalash orqali nazariy bilimlarni real kasbiy faoliyatga transformatsiya qilish masalasi alohida tizimli tadqiqot obyekti sifatida yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Mazkur holat bo'lajak surdopedagoglarni tayyorlash jarayonida metodik va amaliy kompetensiyalar integratsiyasining praktsiologik konsepsiyasini ishlab chiqish zaruratini belgilaydi. Bu konsepsiya nazariy bilim, metodik loyihalash, amaliy faoliyat va natijani baholash komponentlarini yagona tizimga birlashtirish orqali mutaxassisning kasbiy faoliyatga tayyorgarlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda bo'lajak surdopedagoglarni tayyorlash jarayonida metodik va amaliy kompetensiyalar integratsiyasini o'rganishda tizimli, praktsiologik, kompetensiyaviy va integrativ yondashuvlar qo'llanildi. Tadqiqotda ilmiy-pedagogik adabiyotlarni nazariy tahlil qilish, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, modellash va empirik kuzatuv metodlaridan foydalanildi.

Praktsiologik yondashuv metodik bilimlarni real kasbiy faoliyatga tatbiq etish imkoniyatlarini aniqlashga, kompetensiyaviy yondashuv esa bo'lajak surdopedagoglarning metodik va amaliy tayyorgarligini yaxlit tizim sifatida baholashga xizmat qildi. Tadqiqot natijasida metodik va amaliy kompetensiyalar o'rtasidagi bog'liqlikni ta'minlashning konseptual asoslari belgilandi.

Tadqiqot natijalari

Tadqiqot davomida bo'lajak surdopedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlash tizimida metodik va amaliy kompetensiyalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikning yetarli darajada ta'minlanmaganligi aniqlandi. Mazkur holat, avvalo, talabalarining maxsus pedagogika, surdopsixologiya, surdopedagogika, korreksion pedagogika va xususi metodika fanlari bo'yicha egallagan nazariy bilimlarini real pedagogik vaziyatlarda kompleks qo'llashida muayyan qiyinchiliklar mavjudligi bilan izohlanadi. Xususan, bo'lajak mutaxassis nazariy jihatdan ma'lum bir korreksion metod yoki pedagogik texnologiyaning mazmunini bilgan holda, uni eshitishda nuqsoni bo'lgan bolaning individual rivojlanish xususiyatlari, eshitish holati, nutqiy imkoniyatlari hamda ta'lim ehtiyojlariga moslashtirishda amaliy tayyorgarlikning yetarli emasligi kuzatiladi.

Tahlillar natijasida surdopedagoglarni tayyorlash jarayonidagi asosiy muammolardan biri bilim – loyihalash – amalga oshirish – baholash zanjirining uzviy tashkil etilmaganligi ekanligi belgilandi. An'anaviy ta'lim jarayonida talabalar ko'proq nazariy bilimlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan bo'lib, mazkur bilimlarni aniq kasbiy vaziyatga tatbiq etish, korreksion-pedagogik faoliyatni oldindan loyihalash va olingan natijalarni tahlil qilish imkoniyatlari yetarli darajada tizimlashtirilmagan. Natijada metodik kompetensiya va amaliy kompetensiya parallel ravishda rivojlanadi, biroq ular o'rtasida funksional integratsiya to'liq shakllanmaydi.

Tadqiqot doirasida metodik va amaliy kompetensiyalar integratsiyasining praktsiologik mazmuni aniqlashtirildi. Metodik kompetensiya bo'lajak surdopedagogning korreksion-ta'limiy jarayonni ilmiy asosda tahlil qilish, maqsad va vazifalarni belgilash, mazmun va metodlarni tanlash, pedagogik jarayonni loyihalash qobiliyatini qamrab olishi belgilandi. Amaliy kompetensiya esa ishlab chiqilgan metodik yechimni real ta'lim va korreksion vaziyatlarda amalga oshirish, pedagogik vositalardan maqsadga muvofiq foydalanish, yuzaga kelgan muammolarga moslashuvchan javob qaytarish hamda faoliyat natijasini baholash qobiliyati bilan tavsiflandi. Ushbu ikki kompetensiyaning integratsiyasi natijasida kasbiy faoliyatning nazariy va amaliy komponentlari yagona tizim sifatida namoyon bo'lishi asoslandi.

Bo'lajak surdopedagoglarda metodik va amaliy kompetensiyalar integratsiyasini ta'minlashning to'rt bosqichli praktsiologik modeli

No	Bosqichlar	Bosqichning mazmuni	Asosiy faoliyat	Kutiladigan natija
1	Diagnostic-tahliliy bosqich	Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolaning individual, psixologik-pedagogik va rivojlanish xususiyatlarini o'rganish hamda ta'limiy ehtiyojlarini aniqlash	Kuzatish, diagnostika, pedagogik vaziyatni tahlil qilish, individual imkoniyatlarni baholash	Talabada pedagogik muammoni aniqlash va vaziyatni kasbiy tahlil qilish kompetensiyasi shakllanadi
2	Metodik-loyihalash bosqichi	Olingan diagnostik ma'lumotlar asosida korreksion-ta'limiy faoliyatning maqsadi, vazifalari, mazmuni, metod va vositalarini belgilash	Individual dastur va mashg'ulotlarni loyihalash, metodlarni tanlash, pedagogik jarayonni rejalashtirish	Talabaning metodik kompetensiyasi, pedagogik faoliyatni mustaqil loyihalash qobiliyati rivojlanadi
3	Amaliy-ijrochilik bosqichi	Ishlab chiqilgan metodik loyiha va pedagogik yechimlarni real yoki	Korreksion mashg'ulotlarni tashkil etish, tanlangan metod	Metodik bilimlarning amaliy faoliyatga transformatsiyasi va amaliy-ijrochilik

		modellashtirilgan kasbiy vaziyatlarda amalga oshirish	va vositalarni qo'llash, pedagogik qarorlarni amalda sinash	kompetensiyasi ta'minlanadi
4	Refleksiv-baholash bosqichi	Amalga oshirilgan pedagogik faoliyat natijalarini tahlil qilish, metodik qarorlar samaradorligini baholash va faoliyatga zarur tuzatishlar kiritish	O'z-o'zini tahlil qilish, natijalarni baholash, xatolarni aniqlash, metodik faoliyatni takomillashtirish	Talabada refleksiv fikrlash, o'z faoliyatini baholash va kasbiy faoliyatni takomillashtirish kompetensiyasi shakllanadi

Jadvaldan ko'rinadiki, praksiologik model "tahlil qilish → loyihalash → amalga oshirish → baholash va takomillashtirish" mantiqiy ketma-ketligi asosida tashkil etiladi. Mazkur bosqichlarning o'zaro uzviyligi bo'lajak surdopedagoglarda metodik bilimlarni real kasbiy faoliyat bilan bog'lashga, nazariy va amaliy kompetensiyalar o'rtasidagi dezintegratsiyani kamaytirishga hamda yaxlit kasbiy kompetentlikni shakllantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijasida maxsus ta'lim mazmunini tashkil etishda didaktik loyihalash integratsiyaning muhim mexanizmi ekanligi aniqlandi. Didaktik loyihalash jarayonida har bir nazariy mavzuni unga mos amaliy vazifa, pedagogik vaziyat yoki korreksion topshiriq bilan bog'lash maqsadga muvofiq deb topildi. Masalan, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolaning nutqiy rivojlanish xususiyatlariga oid nazariy bilimlar o'zlashtirilgach, talaba mazkur bilim asosida individual mashg'ulot rejasini ishlab chiqishi, korreksion metodlarni tanlashi, mashg'ulotning kutilayotgan natijalarini belgilashi va amaliy faoliyat natijalarini baholashi lozim. Bunday tashkil etish shakli metodik bilimning bevosita kasbiy faoliyat bilan bog'lanishini ta'minlaydi.

Shuningdek, tadqiqotda metodik va amaliy kompetensiyalar integratsiyasini baholash uchun bir qator mezonlar belgilandi. Jumladan, analitik mezon bo'yicha talabaning kasbiy vaziyatni tahlil qilish va muammoni aniqlash qobiliyati; loyihalash mezonini asosida pedagogik faoliyatning maqsad va mazmunini rejalashtirish darajasi; amaliy-ijrochilik mezonini orqali tanlangan metod va vositalarni real vaziyatda qo'llash qobiliyati; refleksiv-baholash mezonini asosida esa o'z faoliyati natijalarini tahlil qilish va zarur tuzatishlar kiritish darajasi aniqlandi. Ushbu mezonlar bo'lajak surdopedagoglarning integrallashgan kasbiy kompetentligini kompleks baholash imkonini beradi.

Tadqiqot natijalari asosida metodik va amaliy kompetensiyalarni integratsiyalash jarayonida kasbiy vaziyatli topshiriqlar, keyslar, pedagogik modellashtirish, mikroo'qitish, individual korreksion dasturlarni loyihalash va refleksiv tahlil kabi ta'lim shakllaridan foydalanish muhim ekanligi belgilandi. Ushbu vositalar talabani tayyor metodik ma'lumotni o'zlashtirishdan faol kasbiy qaror qabul qilish jarayoniga olib o'tadi. Ayniqsa, real yoki real faoliyatga yaqinlashtirilgan pedagogik vaziyatlardan foydalanish talabaning murakkab va nostandart holatlarda mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

Natijalar shuni ko'rsatdiki, metodik va amaliy kompetensiyalar integratsiyasi bo'lajak surdopedagogning kasbiy tayyorgarligida yangi sifat darajasini yuzaga keltiradi. Bunda talaba "bilaman" darajasidan "loyihalay olaman", "amalga oshira olaman" va "natijani baholay olaman" darajasiga bosqichma-bosqich o'tadi. Aynan mana shu o'zgarish praksiologik yondashuvning asosiy natijasi sifatida baholanishi mumkin. Chunki kasbiy tayyorgarlikning haqiqiy samaradorligi o'zlashtirilgan bilimlar hajmi bilan emas, balki ularni muayyan pedagogik sharoitda maqsadga muvofiq va samarali qo'llash imkoniyati bilan belgilanadi.

Olib borilgan tahlil natijasida bo'lajak surdopedagoglarni tayyorlashda metodik va amaliy kompetensiyalar integratsiyasining praksiologik konsepsiyasi diagnostika, tahlil, metodik loyihalash, amaliy ijro, refleksiya va natijani baholash kabi o'zaro bog'liq komponentlarga asoslanishi belgilandi. Ushbu komponentlarning yagona tizim asosida tashkil etilishi nazariy va amaliy tayyorgarlik o'rtasidagi uzilishlarni kamaytirish, talabalarning kasbiy faoliyatga moslashuvini tezlashtirish hamda ularning mustaqil pedagogik qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Natijada bo'lajak surdopedagogning kasbiy tayyorgarligi bilimlar majmuasidan amaliyotga yo'naltirilgan, refleksiv va natijador faoliyat tizimiga transformatsiyalanadi.

Muhokama

Tadqiqot natijalari bo'lajak surdopedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda metodik va amaliy kompetensiyalarni alohida yo'nalishlar sifatida emas, balki o'zaro bog'liq va bir-birini to'ldiruvchi yagona tizim sifatida shakllantirish zarurligini ko'rsatdi. Tadqiqot davomida aniqlangan "diagnostika – loyihalash – amaliy ijro – refleksiv baholash" ketma-ketligi surdopedagogik tayyorgarlikning praksiologik mazmunini belgilovchi asosiy mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Bunday yondashuv nazariy bilimlarni bevosita kasbiy vaziyatlar bilan bog'lash hamda ularning amaliy faoliyatdagi funksional ahamiyatini kuchaytirish imkonini beradi.

Muhokama natijalari shuni ko'rsatadiki, an'anaviy kasbiy tayyorgarlik tizimida metodik bilimlarni o'zlashtirish va ularni amaliyotda qo'llash ko'pincha ketma-ket, biroq yetarli darajada integratsiyalashmagan jarayon sifatida tashkil etiladi. Natijada talaba muayyan metod, texnologiya yoki korreksion usulning nazariy asoslarini bilgan holda, uni aniq pedagogik vaziyatga moslashtirishda qiyinchilikka duch kelishi mumkin. Ayniqsa, surdopedagogik faoliyatda bolaning eshitish holati, nutqiy rivojlanishi, psixologik xususiyatlari va individual ta'lim ehtiyojlarini bir vaqtning o'zida hisobga olish talab etilishi metodik va amaliy kompetensiyalarning integratsiyasini yanada dolzarb qiladi.

Tadqiqotda ishlab chiqilgan to'rt bosqichli praksiologik model mazkur muammoni tizimli hal etishga yo'naltirilganligi bilan ahamiyatlidir. Diagnostik-tahliliy bosqich bo'lajak mutaxassisning pedagogik vaziyatni to'g'ri anglashiga xizmat qilsa, metodik-loyihalash bosqichi aniqlangan muammoga mos maqsad, mazmun, metod va vositalarni tanlash imkonini beradi. Amaliy-ijrochilik bosqichida metodik qarorlarning hayotiyiligi va samaradorligi tekshiriladi,

refleksiv-baholash bosqichida esa olingan natijalar tahlil qilinib, faoliyatni takomillashtirish yo'llari belgilanadi. Shunday qilib, mazkur model bo'lajak surdopedagogning kasbiy faoliyatini bir martalik amaliy harakat emas, balki muntazam tahlil va takomillashtirishga asoslangan dinamik jarayon sifatida shakllantiradi.

Muhokama jarayonida didaktik loyihalash metodik va amaliy kompetensiyalar integratsiyasining asosiy vositalaridan biri ekanligi ham aniqlandi. Chunki didaktik loyihalash talabning nazariy bilimlarni tayyor shaklda qabul qilishidan ko'ra, ularni muayyan kasbiy vazifani hal etishga yo'naltiradi. Talaba pedagogik vaziyatni tahlil qiladi, muammoni aniqlaydi, unga mos metodik yechimni ishlab chiqadi va keyinchalik ushbu yechimni amaliyotda sinab ko'radi. Bu jarayon bilimning amaliyotga ko'chirishini ta'minlash bilan birga, mustaqil fikrlash, kasbiy qaror qabul qilish va refleksiv faoliyat ko'nikmalarining rivojlanishiga ham xizmat qiladi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari metodik va amaliy kompetensiyalar integratsiyasini baholashda faqat bilim darajasini aniqlash yetarli emasligini ko'rsatadi. Bo'lajak surdopedagogning kasbiy tayyorgarligi uning pedagogik vaziyatni tahlil qilish, faoliyatni loyihalash, tanlangan metodlarni amalda qo'llash va o'z faoliyatining natijalarini baholash qobiliyatlari orqali kompleks baholanishi lozim. Shu nuqtayi nazardan, analitik, loyihalash, amaliy-ijrochilik va refleksiv mezonlarning o'zaro bog'liqligi integrallashgan kasbiy kompetentlikni aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Olib borilgan tadqiqot metodik va amaliy kompetensiyalar integratsiyasiga asoslangan praksiologik yondashuv bo'lajak surdopedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlash sifatini oshirishga xizmat qilishini ko'rsatadi. Mazkur yondashuv orqali nazariy bilimlar, metodik loyihalash, amaliy faoliyat va refleksiv baholash yagona pedagogik tizimga birlashtiriladi. Natijada bo'lajak mutaxassisda kasbiy vaziyatni mustaqil tahlil qilish, maqbul pedagogik qarorlarni qabul qilish, ularni amaliyotda sinash va faoliyat natijalarini takomillashtirishga qaratilgan yaxlit praksiologik kompetentlik shakllanadi. Bu esa surdopedagoglarning kelajakdagi kasbiy faoliyatga tezroq moslashishi hamda murakkab korreksion-pedagogik vaziyatlarda samarali faoliyat yuritishiga metodologik zamin yaratadi.

Xulosa

Olib borilgan tadqiqot natijasida bo'lajak surdopedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda metodik va amaliy kompetensiyalarni o'zaro integratsiyalash zarurligi aniqlandi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, nazariy-metodik bilimlarning amaliy faoliyat bilan yetarli darajada bog'lanmasligi bo'lajak mutaxassislarning murakkab korreksion-pedagogik vaziyatlarda mustaqil va samarali faoliyat yuritish imkoniyatlarini cheklaydi. Shu sababli surdopedagoglarni tayyorlash jarayonida bilimlarni o'zlashtirish, pedagogik faoliyatni loyihalash, uni amalda amalga oshirish va natijalarni baholash jarayonlarini yagona tizim asosida tashkil etish muhim hisoblanadi. Tadqiqot doirasida metodik va amaliy kompetensiyalar integratsiyasini ta'minlashning diagnostik-tahliliy, metodik-loyihalash, amaliy-ijrochilik va refleksiv-baholash bosqichlaridan iborat praksiologik modeli ishlab chiqildi. Ushbu model bo'lajak surdopedagoglarning nazariy bilimlarini aniq kasbiy vaziyatlarga tatbiq etish, pedagogik qarorlarni mustaqil qabul qilish va o'z faoliyati natijalarini tahlil qilish kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari asosida didaktik loyihalash metodik bilimlarni amaliy faoliyatga transformatsiya qilishning muhim mexanizmi sifatida belgilandi. Bunda kasbiy vaziyatli topshiriqlar, pedagogik keyslar, modellashtirish, mikroo'qitish va refleksiv tahlildan foydalanish metodik va amaliy kompetensiyalar o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni kuchaytirishga imkon beradi. Shunday qilib, bo'lajak surdopedagoglarda metodik va amaliy kompetensiyalar integratsiyasining praksiologik konsepsiyasi kasbiy tayyorgarlikning "tahlil qilish – loyihalash – amalga oshirish – baholash va takomillashtirish" mantiqiy zanjiri asosida tashkil etilishi lozim. Mazkur yondashuv nazariya va amaliyot o'rtasidagi mavjud uzilishlarni kamaytirish, bo'lajak mutaxassislarning kasbiy faoliyatga moslashuvini takomillashtirish hamda ularda mustaqil, refleksiv va natijador kasbiy faoliyat yuritish kompetensiyalarini shakllantirish uchun muhim ilmiy-amaliy asos yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abidova N. Z. Bo'lajak maxsus pedagoglarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirish // *Ta'lim, fan va innovatsiya*. – 2023. – № 2.URL: <https://staff.tiame.uz/storage/users/786/articles/VDarc8rrUPx92RX5uflZaGvb3aiQ9JxzNRtkCEZ.pdf>
2. Зыков С. А. *Проблемы сурдопедагогики: избранные труды* / сост. и авт. библиогр. Т. С. Зыкова, М. А. Зыкова. – Москва: Загреб, 1997. – 232 с. URL: <https://ikp-rao.ru/metodicheskie-rekomendacii/soderzhanie-34/34-8/>
3. Комаров К. В. *Методика обучения русскому языку в школе для слабослышащих детей: учебное пособие для студентов дефектологических факультетов педагогических институтов*. – Москва: Просвещение, 1988. – 223 с. – ISBN 5-09-000402-1.URL: <https://ci.nii.ac.jp/ncid/BA10063656>
4. Красильникова О. А. *Обучение чтению школьников с нарушениями слуха: учебное пособие*. – Москва: Академия, 2005. – 272 с. – ISBN 5-7695-1821-9.URL: <https://lib.mgppu.ru/opacunicode/index.php?url=%2Fnotices%2Findex%2FIdNotice%3A68777%2FSource%3Adefault>
5. *Настройка образовательных структур в Европе. Вклад университетов в Болонский процесс*. – Tuning Educational Structures in Europe; Socrates-Tempus, 2006. – Электронный ресурс. URL: <https://www.bolognakeg.net/doc/Tuning%20Universities.pdf>
6. Павлович А. А. *Праксиология наук и их праксеологические возможности* // *Технологос*. – 2010. – № 2. – С. 71–85.URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/praksiologiya-nauk-i-ih-prakseologicheskie-vozmozhnosti-1>
7. Семченко Е. Е. *Праксеологическое образование: монография*. – Москва: Мир науки, 2015. – 82 с. – ISBN 978-5-9906296-4-6. URL: <https://izd-mn.com/PDF/03MNNPM15.pdf>
8. *Competence-Based Learning: A Proposal for the Assessment of Generic Competences* / ed. by A. Villa Sánchez, M. Poblete Ruiz. – Bilbao: University of Deusto, 2008. – 334 p. – ISBN 978-84-9830-198-4. URL: <https://catalogo.upsa.es/cgi-bin/koha/opac-detail.pl?biblionumber=202170>